

TRANSPORT VA AXBOROT LOGISTIKASI: O‘ZARO BOG‘LIQLIK, TIZIMLI YONDASHUV VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI

Ubaydullayev Lutfulla Xabibullayevich

Namangan davlat texnika universiteti,
“Menejment” kafedrası dotsenti, i.f.n.

Otabayeva Sevaraxon Shaxobidinovna

Andijon davlat universiteti,
“Dasturiy injiniring” kafedrası o‘qituvchisi
E-mail: otabayevasevara75@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda transport va axborot logistikasining o‘zaro bog‘liqligi tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Unda logistika jarayonlarida raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, IoT va elektron platformalarning qo‘llanilishi natijasida iqtisodiy samaradorlik oshgani ko‘rsatildi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston transport-logistika tizimining rivojlanish tendensiyalari, amaldagi raqamli platformalar hamda xalqaro tajribalar o‘rganildi. Natijalarda transport va axborot oqimlarining integratsiyasi yetkazib berish muddatlarini qisqartirgani, xarajatlarni kamaytirgani va boshqaruv sifatini yaxshilagani aniqlandi. Raqamli transformatsiya jarayonida uchraydigan muammolar baholandi hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish yo‘nalishlarini asoslab berdi.

Kalit so‘zlar: transport logistikasi, axborot logistikasi, raqamli transformatsiya, sun‘iy intellekt, IoT, logistika tizimi, iqtisodiy samaradorlik, ta‘minot zanjiri.

Аннотация

В исследовании была проанализирована взаимосвязь транспортной и информационной логистики на основе системного подхода. Было показано, что применение цифровых технологий, искусственного интеллекта, IoT и электронных платформ способствовало повышению экономической эффективности логистических процессов. В ходе исследования были изучены тенденции развития транспортно-логистической системы Узбекистана, действующие цифровые платформы и международный опыт. Полученные результаты подтвердили, что интеграция транспортных и информационных потоков сократила сроки доставки, снизила издержки и улучшила качество управления. Также были оценены проблемы, возникавшие в процессе цифровой трансформации, и разработаны рекомендации по их устранению. Исследование обосновало направления модернизации транспортно-логистической системы и повышения конкурентоспособности национальной экономики.

Ключевые слова: транспортная логистика, информационная логистика, цифровая трансформация, искусственный интеллект, IoT, логистическая система, экономическая эффективность, цепь поставок.

Abstract

The study analyzed the interrelationship between transport logistics and information logistics using a systematic approach. It demonstrated that the application of digital technologies, artificial intelligence, IoT, and electronic platforms increased the economic efficiency of logistics operations. The research examined the development trends of Uzbekistan's transport and logistics system, existing digital platforms, and international practices. The findings revealed that the integration of transport and information flows reduced delivery times, lowered operational costs, and improved management quality. Challenges encountered during the digital transformation process were also assessed, and practical recommendations were developed to address them. The study substantiated key directions for modernizing the transport-logistics system and strengthening the competitiveness of the national economy.

Keywords: transport logistics, information logistics, digital transformation, artificial intelligence, IoT, logistics system, economic efficiency, supply chain.

KIRISH

Globalashuv, xalqaro savdo hajmlarining ortishi va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi transport-logistika tizimlarining iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyatini yanada kuchaytirdi. Zamonaviy logistika mahsulot va xizmatlarning samarali harakatini ta'minlash bilan birga, axborot oqimlarini boshqarish orqali ta'minot zanjirining uzluksiz faoliyat yuritishiga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan transport logistikasi va axborot logistikasi yagona tizimning o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'lib, ularning integratsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omiliga aylandi.

O'zbekiston Respublikasida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika xizmatlari sifatini yaxshilash va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirildi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, transport va axborot-kommunikatsiya sohalarini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda 2025-yilda qabul qilingan PP-28-son qarori logistika tizimlarini takomillashtirish uchun mustahkam institutsional asos yaratdi.

Transport va axborot logistikasining uyg'un rivojlanishi yuk tashish jarayonlarini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish, boshqaruvning aniqligini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini bermoqda. Raqamli platformalar, sun'iy intellekt, IoT texnologiyalari va elektron hujjat aylanishi logistika jarayonlarining shaffofligi hamda tezkorligini ta'minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi transport va axborot logistikasining o'zaro bog'liqligini tizimli yondashuv asosida tahlil qilish, ularning integratsiyasi natijasida yuzaga kelayotgan iqtisodiy samaradorlikni baholash hamda O'zbekiston sharoitida logistika tizimlarini raqamli rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ilmiy asoslashdan iborat. Bu esa transport-logistika sohasining barqaror rivojlanishi va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qila

ADABIYOTLAR SHARHI

Transport va axborot logistikasining nazariy asoslari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Logistika nazariyasining rivojlanishida Bowersox, Closs va Cooper logistika tizimini moddiy, moliyaviy hamda axborot oqimlarining yagona boshqaruv mexanizmi sifatida izohlab, ta‘minot zanjirida axborot almashinuvining muhim ahamiyatini asoslab bergan [8]. Christopher logistika va ta‘minot zanjiri boshqaruvida axborot texnologiyalarining strategik rolini yoritib, raqamli integratsiya korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ta‘kidlagan [9].

Ta‘minot zanjiri boshqaruvi bo‘yicha Chopra va Meindl tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar (Big Data) va raqamli texnologiyalarning logistika jarayonlariga joriy etilishi xarajatlarni kamaytirish hamda operatsion samaradorlikni oshirishga imkon yaratishi ilmiy jihatdan asoslangan [10]. Xususan, mualliflar axborot oqimlarining tezkorligi va aniqligi logistika tizimi samaradorligining asosiy omillaridan biri ekanligini qayd etgan.

Mahalliy olimlardan To‘xtayev va Xolmurodov O‘zbekiston transport-logistika tizimining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganib, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va logistika xizmatlarini takomillashtirishning iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatgan [5]. Ularning tadqiqotlarida mamlakatning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish logistika tizimlari rivojlanishining muhim sharti sifatida baholangan.

Logistika sohasida raqamli transformatsiya masalalari alohida e‘tibor qozondi. Deloitte hisobotida sun‘iy intellekt asosidagi yechimlarni qo‘llagan kompaniyalarda yetkazib berish jarayonlari tezlashgani va logistika xarajatlari sezilarli darajada qisqargani qayd etilgan [14]. McKinsey Global Institute tadqiqotlarida esa avtomatlashtirish va sun‘iy intellekt texnologiyalarining logistika sohasidagi mehnat unumdorligini oshirish bilan birga yangi kasbiy kompetensiyalarga ehtiyojni kuchaytirishi ta‘kidlangan [11].

Transport-logistika tizimlarining xalqaro samaradorligini baholashda Jahon bankining Logistics Performance Index (LPI) hisobotlari muhim manba hisoblanadi [6]. Ushbu hisobotlarda logistika infratuzilmasi, bojxona jarayonlari, yuk tashish sifati va raqamli boshqaruv tizimlarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri tahlil qilingan. World Economic Forum tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil logistika, energiya tejankor transport va ekologik barqaror ta‘minot zanjirlari zamonaviy logistika rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatilgan [13].

O‘zbekiston Respublikasida transport va axborot logistikasini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [1], axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga oid farmonlar [2], transport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari [3] hamda 2030-yilgacha transport-logistika tizimini rivojlantirish konsepsiyasi [4] mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosini tashkil etadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanilgan: (1) tizimli tahlil metodi - transport va axborot logistikasini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish; (2) qiyosiy tahlil - O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar logistika tizimlarini solishtirish; (3) induksiya va deduksiya - umumiy logistika nazariyasidan O‘zbekiston misolida xususiy xulosalarga o‘tish; (4) monografik tahlil - mavjud logistika platformalari va tizimlarni chuqur o‘rganish; (5) miqdoriy tahlil - yuk tashish hajmi, konteyner trafigi va LPI indeksi bo‘yicha ma’lumotlarni qayta ishlash.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ma’lumotlari, Dunyo banki LPI hisobotlari, RailFreight.com xalqaro tranzit statistikasi, Deloitte SI logistika hisoboti va WEF yashil logistika bo‘yicha ma’ruzasi tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transport logistikasi - tovarlarni A nuqtadan B nuqtaga yetkazib berish, transport vositalari, yo‘nalishlar va logistika infratuzilmasini boshqarishni o‘z ichiga oladi. Asosiy vazifasi: yetkazib berish vaqtini qisqartirish, xarajatlarni kamaytirish va yuk xavfsizligini ta’minlash.

Axborot logistikasi - logistika jarayonlarini boshqarish uchun ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va uzatish tizimi. Real vaqt rejimida monitoring, IoT qurilmalari, ERP tizimlari va sun‘iy intellekt yordamida samarali qaror qabul qilishni ta’minlaydi. Blokcheyn texnologiyasi esa yuk hujjatlarining autentifikatsiyasi va shaffofligini kafolatlaydi.

Xalqaro tajriba ko‘rsatishicha, transport va axborot tizimlarini integratsiya qilgan korxonalar logistika xarajatlarini o‘rtacha 15-20% ga kamaytira olgan. Chopra va Meindl ma’lumotlariga ko‘ra, SI asosidagi bashorat tizimlari joriy etilganda yetkazib berish muddatlaridagi kechikishlar 30% ga kamaygan.

1-jadval

Transport va axborot logistikasi: taqqoslama tahlil¹

Xususiyat	Transport logistikasi	Axborot logistikasi
Asosiy obyekt	Tovar va yuk oqimi (fizik)	Ma’lumot va signal oqimi (virtual)
Asosiy vositalar	Transport, ombor, yo‘l infratuzilmasi	ERP, IoT, SI, blokcheyn platformalari
Maqsad	Vaqt, xarajat, xavfsizlikni optimallashtirish	Qaror qabul qilish, monitoring, prognoz
O‘zaro bog‘liqlik	Axborot tizimisiz samarasiz	Transport ma’lumotlarsiz ishlolmaydi
Samaradorlik o‘lchovi	Yetkazib berish vaqti, tannarx	Qaror tezligi, ma’lumot aniqligi
Global tendensiya	Yashil transport, multimodal	SI, Big Data, real-time analytics

“UzAutoTrans” - Avtotransport logistika tizimi: Yuk va transport vositalari harakatini avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali boshqaradi. Buyurtmachi va

¹ Muallif ishlanmasi

tashuvchilarni bevosita bog'laydi. Tizim orqali real vaqtda yuk holati kuzatilishi va hujjatlashtirish amalga oshirilishi - klassik axborot logistikasining amaliy namunasi.

“O‘zbekiston Temir Yo‘llari” raqamli tizimi: 2024-2025 yillarda temir yo‘l orqali yuk tashish samaradorligi ikki barobarga oshdi. Hyundai Rotem (Janubiy Koreya) bilan 6 ta yuqori tezlikdagi elektr poyezdlar sotib olish bo‘yicha shartnoma imzolandi. Xitoy-O‘zbekiston yo‘nalishlarida ikkita yangi temir yo‘l marshrutlari ishga tushirildi.

“TIR-EPD” elektron deklaratsiya platformasi: Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan joriy etilgan bu platforma bojxona rasmiylashtirish jarayonini butunlay raqamlashtiradi. Qog‘ozbozlikni kamaytirish, vaqtni tejash va ma‘lumotlar ishonchligini oshirish - asosiy afzalliklari.

“Smart Logistics Center”: Zamonaviy omborlash, konteyner terminallar va axborot boshqaruv tizimini birlashtirgan xalqaro standartlardagi markaz. "Bitta deraza" tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan.

“e-Transport.uz” va “E-Auksion.uz”: Milliy transport reyestri va elektron savdo platformalari logistika zanjirining shaffofligini oshiradi, bozor narxini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

2-jadval

PQ-28 qarori doirasidagi asosiy maqsadlar va joriy holat¹

Ko‘rsatkich	2024-yil holat	Maqsad 2030-yil
Xalqaro yuk tashish hajmi	Bazaviy ko‘rsatkich	Kamida 2 barobarga oshirish
Konteyner trafigi	Bazaviy ko‘rsatkich	1,5 barobarga oshirish
Dunyo banki LPI indeksi	88-o‘rin	55-o‘ringa ko‘tarilish
Elektron navbat tizimi	Qisman joriy etilgan	Barcha to‘xtash nuqtalarida
Yangi temir yo‘l marshrutlari	2025-yilda 2 ta yangi marshrut	Xitoy, Hindiston yo‘nalishlari
Raqamli hujjatlashtirish	TIR-EPD qisman	To‘liq raqamlashtirish

Raqamli tengsizlik (Digital Divide): Global internet kontentining katta qismi ingliz tilida va rivojlangan mamlakatlarda to‘plangan. O‘zbekistondagi qishloq hududlarida keng polosali internet qamrovi hali cheklangan bo‘lib, bu logistika tizimlarining to‘liq raqamlashtirilishiga to‘sqinlik qilmoqda. ITU ma‘lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda logistika digitalizatsiyasining asosiy to‘sig‘i - infratuzilma emas, balki raqamli savodxonlik va konnektivlik.

Sun‘iy intellekt va mehnat bozori transformatsiyasi: McKinsey Global Institute ma‘lumotlariga ko‘ra, logistika sohasidagi avtomatizatsiya 2030-yilga kelib ushbu sohada band bo‘lgan ishchilarning 45% ni yangi ko‘nikmalarga o‘tishga majbur qiladi. Bu O‘zbekiston uchun ham dolzarb: raqamli logistika tizimlarini boshqara oladigan mutaxassislar taqchilligi innovatsiyalar joriy etilishini sekinlashtirmoqda.

Kiberxavfsizlik muammolari: Raqamli platformalarga o‘tish axborot xavfsizligi masalasini keskin ko‘tarmoqda. IBM Security hisobotiga ko‘ra, logistika sohasidagi kiberxurujlar so‘nggi 3 yilda 78% ga oshgan. TIR-EPD va e-Transport.uz kabi milliy platformalar uchun kiberxavfsizlik arxitekturasini mustahkamlash zarur.

¹ Manbalar asosida muallif ishlatmasi

Iqlim o'zgarishi va yashil logistika: Paris kelishuvi va YaIM maqsadlariga ko'ra, transport sektori 2050-yilga kelib karbonni nolga tushirishi lozim. WEF ma'lumotlariga ko'ra, elektr poyezdlar va yashil vodorod yoqilg'isi kelajak logistikasining asosi bo'ladi. O'zbekiston uchun bu imkoniyat - quyosh va shamol energiyasiga asoslangan ko'k vodorod logistikasini rivojlantirish.

Quruqlikka o'ralgan geografik joylashuv: O'zbekistonning dengizga chiqish imkoniyati yo'qligi tranzit logistikasini murakkablashtiradi va xarajatlarni oshiradi. Biroq bu muammo mintaqaviy logistika markaziga aylanish orqali qisman yechilishi mumkin - Xitoy-Yevropa va Hindiston-Rossiya yo'nalishlari bo'yicha tranzit markaz maqomini olish strategik imkoniyat.

3-jadval

Global muammolar va logistika tizimiga ta'siri¹

Global muammo	Logistikaga ta'siri	O'zbekiston uchun tavsiya
Raqamli tengsizlik	Qishloq hududlarida raqamli platformalarga kirishda to'siq	Hududiy konnektivlikni oshirish, offline-online gibrid yechimlar
SI va avtomatizatsiya	Malakali kadrlar taqchilligi kuchayadi	Logistika IT-mutaxassislari tayyorlash dasturlari
Kiberxavfsizlik	Platformalar nishonga aylanish xavfi	Milliy kiberxavfsizlik standarti joriy etish
Iqlim o'zgarishi	Yashil logistikaga o'tish talabi	Elektr transport, yashil vodorod infratuzilma
Geosiyosiy o'zgarishlar	Yangi tranzit marshrutlarga talab	Xitoy-Yevropa, Hindiston yo'nalishlari

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari transport va axborot logistikasining o'zaro integratsiyasi zamonaviy logistika tizimlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Tizimli yondashuv asosida transport va axborot oqimlarining uyg'un boshqarilishi yuk tashish jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish hamda boshqaruv qarorlarining aniqligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, IoT va elektron platformalarning qo'llanilishi logistika jarayonlarining shaffofligi va tezkorligini ta'minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishga imkon yaratdi.

Tahlillar O'zbekistonda transport-logistika sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur yo'nalishning barqaror taraqqiyotiga xizmat qilayotganini tasdiqladi. Xususan, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish va xalqaro logistika aloqalarini kengaytirish mamlakatning tranzit salohiyatini oshirish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Amaldagi raqamli platformalar logistika xizmatlari sifatini yaxshilash, ma'lumotlar almashinuvini tezlashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim natijalar bermoqda.

¹ Manbalar asosida muallif ishlatmasi

Transport va axborot logistikasining uyg'un rivojlanishi O'zbekistonning xalqaro transport yo'laklaridagi mavqeini mustahkamlash, tranzit yuklar hajmini ko'paytirish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratishi qayd etildi. Raqamli transformatsiya jarayonlarining izchil davom ettirilishi logistika tizimlarining innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- transport va axborot logistikasiga oid raqamli platformalarni yagona integratsiyalashgan boshqaruv tizimi asosida rivojlantirish;
- logistika jarayonlarida sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili texnologiyalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish;
- transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va multimodal tashuvlar imkoniyatlarini oshirish;
- logistika sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini takomillashtirish;
- xalqaro logistika standartlari va ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etishni kengaytirish;
- ekologik barqaror transport va yashil logistika tamoyillarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

Transport va axborot logistikasining samarali integratsiyasi mamlakat logistika tizimining raqamli rivojlanishini jadallashtirish, xizmatlar sifatini oshirish hamda O'zbekistonning xalqaro logistika makonidagi raqobatbardoshligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-3564970>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevral PF-5647-son "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari" Qarori <https://lex.uz/docs/-4194107>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvar PQ-28-son "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7342148>
5. To'xtayev M., Xolmurodov A. Transport logistikasi asoslari. - Toshkent, 2021. - 210 b.
6. World Bank. Logistics Performance Index (LPI) 2023. - Washington: World Bank Group, 2023.
7. RailFreight.com. Uzbekistan New Rail Routes 2025. - : railfreight.com.
8. Bowersox D.J., Closs D.J., Cooper M.B. Supply Chain Logistics Management. - 4th ed. - McGraw-Hill, 2013. - 498 p.

9. Christopher M. Logistics & Supply Chain Management. - 5th ed. - Pearson, 2016. - 336 p.
10. Chopra S., Meindl P. Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation. - 7th ed. - Pearson, 2019. - 528 p.
11. McKinsey Global Institute. Jobs Lost, Jobs Gained: Workforce Transitions in a Time of Automation. - New York: McKinsey, 2023.
12. IBM Security. Cost of a Data Breach Report 2023. - Armonk: IBM, 2023. - 80 p.
13. World Economic Forum. Net-Zero Challenge: The Supply Chain Opportunity. - Geneva: WEF, 2023. - 64 p.
14. Deloitte. The Future of Logistics: Artificial Intelligence in Supply Chains. - New York: Deloitte Insights, 2023. - 48 p.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**